Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.2
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

TURKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING SHAKILLANISHI VA O'ZIGA XOS MUAMMOLARI

Odinaxon Akmaljon qizi Xolmirzayeva*
FDU tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi
✉ botirovaodina@974gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarini shakillanishi, ko'payib borishi, ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini olib borilishi, o'quv-tarbiya dasturlarini ishlab chiqilishi va ularning mazmun-mohiyati ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida, qolaversa, hayotiy xotiralar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar bog'chalari, shiypon bog'cha, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, mashg'ulot.

DOI: 10.5281/zenodo.21743237

KIRISH.

Buyuk tarixga ega yurtimizda istiqlol shamoli esganidan so'ng ijtimoiy hayotning barcha sohalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilish va takomillashtirish zarurati tug'ildi. Bu, avvalambor, olijanob xalqimizning kelajak avlod taqdiriga nisbatan mas'uliyat hissi yuqori darajada ortgani, qolaversa, sovet davrida asl vazifasi millatning ertasini tarbiyalash bo'lgan ayol-onalardan ishlab chiqarish kuchi sifatida ayovsiz foydalanilganligi, mazkur holatning salbiy oqibatlari bugungi kunda ham namoyon bo'layotgani sohaga bo'lgan e'tiborni orttirdi. Yuqoridagi ikki holat ham maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, shu kungacha bo'lgan davrda tizimda yuzaga kelgan muammolar sababini aniqlash va hal etish yo'llarini izlash bilan bog'liq.

Asosiy qism: O'rta Osiyoda XIX asrning 80-90-yillariga kelib maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimini shakillantirish g'oyalari yetila boshlandi. O'sha davrda yashab ijod etgan taraqqiyparvar mahalliy ziyolilar ayollarning og'ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e'tiborga olgan holda, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Xususan, 1872 yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan kambag'allar uylari, tunash joylari, ilk tug'uruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) qurildi. Butun Turkiston bo'yicha 150-200 nafar bolani o'z ichiga olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar birgalikda tarbiyalangan. 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" ko'rinishida birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Lekin, 1891-1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi bois bog'cha bir necha marta yopilgan[1]. 1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi miskinlarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini nazoratchi-uslubchi ayol olib borgan, shuningdek, xizmat qiluvchi xodimlar ham mavjud bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan birgalikda, bir nechta hunarlar ham o'rgatilgan. Ammo, butun

[1]Tosheva N.Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. – Buxoro: Kamolot, 2022. – B-28.

o‘lka bo‘ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 nafar boladan ortiq bo‘lmagan.[2]

Ta’lim-tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalarning ta’siri tufayli Toshkentda 1903-yil fevral oyida “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” ish boshladi. 1903-1914-yillar davri maktabgacha ta’lim sohasidagi ta’lim-tarbiya g‘oyalarining tez suratda o‘sishi bilan xarakterlanadi. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida maktabgacha ta’lim muassasalari kabi ayrim muassasalar yuzaga keldi. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari yuzaga kela boshladi. Bu maktabgacha ta’lim muassasalarida 6 yoshdan boshlab bolalar, odatda, gimnaziyaga o‘qishga tayyorlanar edi. Bu turdagi bolalar bog‘chalari xususiy uylarda tashkil etilgan va to‘liq ota-onalar ta’minotida bo‘lgan. Ma’lumotga ega bo‘lgan va chet tillarini biladigan ziyoli xonimlar tarbiyachi bo‘lganlar. Lekin, mazkur maktabgacha ta’lim muassasalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojinigina qondirgan, xolos. Davlat tomonidan ijtimoiy maktabgacha ta’lim muassasalari faqat 1917-yildan so‘nggina yalpi tarzda tashkil qilindi[3].

1917-yil 20-noyabrda xalq komissarlari tomonidan “Maktabgacha tarbiya yuzasidan dekloratsiya” ma’lum qilindi. Bunda: “Bolalarni ijtimoiy bepul tarbiyalash bolaning birinchi tug‘ilgan kunidan boshlanadi”, - deyilgan edi. Maktabgacha ta’lim butun xalq maorifi tizimining birinchi bo‘g‘ini va ajralmas qismi bo‘lib qoldi. 1919-yilda e’lon qilingan davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod etish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlarini shakillantirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yo‘li asnosida Turkiston ASSR maorifi xalq komissarligi oldida davlat maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlarini yuzaga keltirish, metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa mas’uliyatli vazifalar paydo bo‘ldi[4].

Turkistonda dastlabki davlat maktabgacha ta’lim muassasalari 1918-yilning ikkinchi yarmida ochila boshlandi. 1918- yil 20-oktabrda Turkiston maorifi xalq komissarligiga qarashli respublikadagi maktabgacha ta’lim sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma’muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo‘limi shakillantirildi.

O‘zbekistonning mahalliy aholisi farzandlarini maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilish uchun kurash o‘ta murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918-yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o‘zbek bolalari uchun 4ta maktabgacha ta’lim muassasasi ochishga muvaffaq bo‘lindi[5].

XX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrdagi davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan bollarni o‘lkaning yanada sermahsul mintaqalariga ko‘chirib keltirish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg‘i, tibbiy yordam bilan ta’minlash masalalari paydo bo‘lgan. Bu masalalarni yechishning asosiy chorasi ommaviy oshxonalar, yasli va bog‘chalar, boshqa tomondan esa ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga ko‘mak bo‘lgan.

Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining ishlab chiqilishi, bu sohadagi muhim bosqich bo‘ldi. 1927 yilda boshlangan ayollarning hujum siyosiy harakati tufayli bolalarning bolalar bog‘chasiga berish hollari yanada oshdi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlar ko‘magida ishlayotgan ayollarga yana bir yordamchi tashkilot – yozgi sog‘lomlashtirish maydonchalari ta’sis e’tildi[6].

XX asr 30-yillaridan boshlab maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog‘chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish yo‘lga qo‘yildi. Bu tekshirishlar natijalariga ko‘ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta’minlanmaganligi, tozalik me’yorlariga amal qilinmasligi ma’lum bo‘ldi.[7]

Qishloqlardagi bolalar bog‘chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya muassasalariga nisbatan bo‘lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga uchragan. Vaholangki, ayni vaqtda tub yerli xalq ongiga mustamlakachilikning va jadallik bilan amalga oshirilgan quloqlashtirish siyosatining ayanchli oqibatlari muhrlangandi. Mazkur holatlar, mahalliy aholi va yevropaliklar orasidagi notenglik tub yerli aholining

[2]Ҳасанбоева О. Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б-20.
[3]Tosheva N.Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. – Buxoro:Kamolot, 2022. B-30.
[4]O’sha asar.B-32.
[5]Ҳасанбоева О. Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. Б-25.
[6]Hoshimov K., Inomov M., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Tarbiyachi, 1996. B-27.
[7]Tosheva N.Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. – Buxoro:Kamolot, 2022. B-35.

hukumatga nisbatan ishonchsizligini mustahkamlashga xizmat qilardi

1930. yildan boshlab O‘zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o‘z bo‘linmalariga ega bo‘lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonalari tuzila boshladi. Uning faoliyati doimiy ma’ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko‘rgazmalar uyushtirishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak tayyorlash bo‘yicha musobaqa ham o‘tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borishgan va bolalar burchaklarini tashkil etishgan va shu bilan bolalarni bog‘chalarga qabul qilish tartibi va oilaviy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahat berish bilan shug‘ullanishgan[8].

Xulosa.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Vatanimiz hududida dastlabki maktabgacha ta’lim muassasalari XIX asrning 80-90 yillarida shakillana boshlagan. Qolaversa, eramizdan avvaligi 1-mingyillikda zaminimizda vujudga kelgan zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra bolalar tarbiyasiga alohida urg‘u berilib, ularni vasiysiz qoldirish qoralanganligi ham diyorimizda qadimdan mazkur masalaga jiddiy e’tibor berilganligini isbotlaydi.

Ammo, sovet hukumati davrida maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini tashkil etishda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi, shuningdek, ularni ochishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bolalar tarbiyasidan ko‘ra sanoat rivojiga yo‘naltirilganligi-da muassasalar ko‘lami kengayishini ortga surdi. Biroq, barcha kamchiliklariga qaramasdan mazkur davrda maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i kengayib, bolalar qamrovi ham oshib bordi

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabr “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5198-son farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. 94-фонд. Годовые отчёты о работе управлении и селов Министерства Просвещения УзССР. (1945-1980 гг.)

6. 1125-фонд.Отдел народного образования Ферганского областного исполкома и Наркомата просвещения, с 1946 г. Министерства просвещения УзССР г. Фергана. (1938-1982 гг.)

7. 604-фонд. Материалы по личному составу детских яслей Ферганского городского отдела Народного образования города Ферганы. (1941-1950 гг.)

8. 664-фонд. Скобелевский городской отдел народного образования испольнительного комитета совета рабочих, крестьянских и красноармейский депутатов города Скобелева. (1938-1963 гг)

9. 2494-фонд. Детский сад № 1 города Маргилана (1951-1954 гг)

10. 3058-фонд. Бағдод тумани халқ маориф бўлими. (1974-1975гг.)

11. 2350-фонд. Маргиланское городское народное образование. (1946-1990гг.)

12. Баратова М. Қишлоқларда болалар боғча ва яслилари тармоқларининг кенгайиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 378 б.

13. Воспитание детей в сезонных дошкольных учреждениях. (А.Говорковой таҳрири остида). – Москва: “Просвещение” нашриёти, 1988. 267– С.

14. Бадалова М. Из истории развития дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1946-1965 гг.). – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Ташкент, 1974. – 68- Б.

[8]Ҳасанбоева О. Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. Б-36.

15. Тўхтаҳўжаева И. Боғчаларда болаларни янги программа асосида тарбиялаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 167-б .

16. Мактабгача тарбия справочниги.– Т., 1974. 521-б.

17. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: “Sharq”, 2010, 68-bet.

18. Тишабоева И. Ўзбекистонда мавсумий болалар боғчалари ва уларнинг фаолияти (1945-1970 йиллар). // Ўзбекистон миллий университети хабарлари. – 2021,№ 1.3.1, Б-22-24.

19. Tosheva N. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. –Buxoro:Kamolot,2022. B